



Taqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | CONFÉRENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA


YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI: 2018-2023

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL
№54

OZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLIV TAJIM MUASSASALARI PROFESSOR-QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IOTTODORLI TALABALAR

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
З-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-3**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-3**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 54-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Alimova G'unchaxon Baxadirovna

O'ZBEKISTONDA JAMIYAT HAYOTINI IJTIMOIY-MA'NAVIY MODERNIZATSIYA
QILISHDA DIN OMILINING ROLI..... 7

2. Alimova G'unchaxon Baxadirovna

YOSHLAR IJTIMOIY HAYOTIDA DIN OMILINING O'RNI..... 9



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

О'zbekistonda jamiyat hayotini ijtimoiy-ma'naviy modernizatsiya qilishda din omilining roli

Alimova G'unchaxon Baxadirovna

Urganch Davlat Universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

Telefon: +998 (99) 018 54 33

gb.alimova@inbox.uz

Annatasiya: *Ushbu maqola* mamlakatimizda jamiyat hayotini ijtimoiy-ma'naviy modernizatsiya qilishda din omilining roli haqida.

Kalit so'zlar: *Islomiy qadriyat, musulmon madaniyati*, Irratsional ilm, dunyoviy davlat.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati murakkab bosqichdan o'tmoqda. Eski dunyo tartibotining buzilishi va yangisining vujudga kelishi nihoyatda keskin holatda kechmoqda. Bir qutbli dunyo tartibotidan ko'p qutbli dunyo tartibotiga o'tish davri kechirilmoqda.

Bu davr, dunyoning bir nechta nuqtalarida urush va keskin ziddiyatlar bilan belgilanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng muhim maqsadlaridan biri dunyoning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rinni egallashdir. Mamlakatimiz tomonidan turli iqtisodiy va siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar davlat rahbari va hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatining yaqqol misolidir. O'zbekiston tinchliksevarlik siyosatini olib borib, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligini va har qanday xalqaro harbiy bloklarga qo'shilmasligini e'lon qilgan.

Bularning barchasi, o'z navbatda, dunyoda yuz berayotgan chuqur ma'naviy bo'htonlar sharoitida, yurtimiz va xalqimizga katta mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Bunday tarixiy bir damlarda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, huquqiy va iqtisodiy voqealarni to'g'ri tahlil etish hamda ularga xolisona baho berish nihoyatda muhimdir. Shuning uchun dunyoda deyarli har qadamda, juda ham muhim bo'lgan hodisalar va jarayonlar sodir bo'layotgan bir davrda, har bir ziyoli inson, mutaxassis, shu bilan birga, tarixiy jarayonlar va uning turli mamlakatlardagi ko'rinishlari kabi turli xil jabhalarda o'zining qarashlarini qat'iy belgilab olishi zarur. Shu bilan bir qatorda, islomning xalqaro hayotdagi va jahon zamonaviy siyosatidagi o'rni tobora murakkablashib bormoqda.

Xalqaro munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojida XX asrda vujudga kelgan va jadal rivojlangan Afro-Osiyo islom harakatining hukumat va nohukumat doirasidagi faoliyati o'ziga xos o'rinn tutadi. Xalqaro darajadagi faolligi, hozirda bir necha o'nlab davlatni qamrashdan tashqari ochiqdan ochiq global jahon siyosatidagi asosini tashkil etib turuvchi komponent bo'lishga da'vogarlik qilayotgani hech kimga sir emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchisi paytida Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida "Biz islomiy qadriyatlar va musulmon madaniyatini muhofaza qilishimiz lozim" deb ta'kidlagan edi.

E'tiqodning yana talay unsurlari bor. E'tiqod muayyan g'oyalar va qadriyatlarni faol qabul qilish, sevish, ixlos qo'yish, ularga yuqorida ta'kidlanganidek, o'z faoliyatini, hayotini moslashtirish, sodiqlik ko'rsatishdir. Uning negizida turuvchi ishonchning o'zi muayyan g'oyalar, ta'limot, qadriyatlarga ijobiy emotSIONAL (hissiy) munosabatdir. Bu hissiy munosabat, ya'ni ishonch ham ratsional va irratsional bo'lishi mumkin.

2018 yil 5 yanvar kuni Toshkent viloyatida xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Soxta, vayronkor ixlos noto'g'ri Tarbiya hamda bilimi va hayotiy tajribasi kam kishilarning tajovuzkop targ'ibot tuzog'iga tushishi oqibatida shakllanadi. Lekin bunday kimsalar ham botil



g‘oyaga intilishni, adashsa-da, ixtiyoriy, erkin tanlaydilar. Haqiqiy ixlos ko‘ngil qo‘ygan g‘oyasi va ta’limotiga xolis xizmat qilishni, zarur bo‘lsa, butun umrini bag‘ishlashni, shaxsiy foyda, manfaat izlamaslikni anglatadi. Sh.M.Mirziyoyevning BMT minbaridan so‘zlagan nutqlarining yana bir e’tiborli jihat shundaki: “Biz muqaddas dinimizni zo‘rovonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”, degan purma’no so‘zlar islom dinining pokiza, bag‘rikenglik dini ekanini namoyon etdilar.

Mustaqil fikrlash va xolislik asosida shakllangan erkin ixlos butun e’tiqodga, ma’naviyatga erkinlik va axloqiylik baxsh etadi. Haqiqiy erkin ixlos insonni tarbiyalaydi, o‘zida yaxshi fazilatlarni shakllantirishga, fozil shaxslardan na’muna olishga, havas qilishga undaydi.

Ixlos qotib qolgan kategoriya emas. U ham ilm va ishonch kabi boyiydi, qashshoqlanadi, o‘zgaradi, rivojlanadi. Ba’zan insonning ixlos qo‘ygan narsasidan ilmi kengayishi, chuqurlashishi natijasida yoki ishonchi oqlanmagani, yoki boshqa sabablarga ko‘ra, ko‘ngli soviydi. Ba’zan esa, aksincha, insonning ixlosi yanada ortadi, kuchayadi. U ixlos qo‘ygan narsasidan axloqiy tayanch topishi qatorida go‘zallik va aqliy zavq-shavq tuyadi. His-hayajoni ehtirosga aylanadi.

Bu, aslida, ixlosning yuksalib ishqqa aylanishidir. Ishq inson ma’naviy dunyosini boyitadi, kuchaytiradi. Insonni ijodkor, yaratuvchi shaxsga aylantiradi. Ishqning yana bir muhim xususiyati idealni shakllantirishdir.

O‘zbekiston – dunyoviy davlat, unda 16 ta diniy konfessiyaga oid 130 dan ortiq turli millatlar va elatlar yashaydi. Yangilangan Bosh Qomusimiz – Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston – dunyoviy davlat” ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. Bu albatta ulkan tarixiy qadam bo‘ldi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 33-moddasida: “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega”, deya bulglangan bo‘lsa, 35-moddada “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi” qayd etilgan.

Konstitutsiyaviy me’yorlarni yuzaga chiqarish maqsadida tegishli qonunlar qabul qilingan, ular muntazam takomillashtirib, boyitib, kengaytirib berilmoqda. Masalan, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun ilk bor 1991 yilning 14 iyunida, ya’ni hali O‘zbekiston mustaqillik uchun kurashayotgan paytlardayoq qabul qilingan edi. Bu qonun keyin mustaqillik yillarida yangi tahrirda qayta qabul qilindi. Hozir ham bugungi ijtimoiy ong darajasini, zamonaviy ichki tarraqqiyot va tarixiy jarayonlar tendensiyalarini, O‘zbekistonning xalqaro ahvoli va aloqalarini hisobga olib, mazkur qonunni takomillashtipish ehtiyojlari mavjud.

Konstitutsiyamiz e’tiqod erkinligi va inson huquqlarini yuzaga chiqaruvchi qonunlar majmuasi umummilliy jipslikni amalga oshirish, O‘zbekistonda yashovchi bapcha xalqlarga o‘z milliy-madaniy, diniy, insoniy ehtiyojlarini hech qanday to‘sqliarsiz qondirish uchun zarur huquqiy baza bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonni barqaror rivojlantirish, ravnaq toptirish va turmush farovonligini yuksaltirishda, milliy g‘oyada belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida barcha fuqarolarni birlashtiradi hamda ehtimoldagi ba’zi diniy va milliy ziddiyatlarning oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- 1) Yavkochev Sh. “Jahon siyosatida islom omili”. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. 2016. –B.5
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Islom poklik dini”.
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev nutqi –dunyo va va xalqimiz nigohida.
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. «Xalq so‘zi» gazetasining 2016 yil 15 sentyabrdagi 182 (6617)-soni.



YOSHLAR IJTIMOIY HAYOTIDA DIN OMILINING O'RNI

Alimova G'unchaxon Baxadirovna
Urganch Davlat Universiteti
Mustaqil tadqiqotchi
Telefon: +998 (99) 018 54 33
gb.alimova@inbox.uz

Annatatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizda yoshlar ijtimoiy-ma'naviy hayotida din omilning roli va o'rni haqida.

Kalit so'zlar: etnik, demografik, dunyoviy davlat, ijtimoiy va tarixiy dunyoqarash.

Zamonaviy dunyoda asosiy tendensiyalardan biri bu shubhasiz din va davlat, qadriyat va ma'naviyat omilining kesishuv nuqtalarini anqilash bo'lib bormoqda. Davlatning ichki va tashqi jarayonlari tizimida din fenomeni tobora tarixiy-siyosiy diskussiyalarning muhim ob'ektiga aylangani holda turli ijtimoiy institutlarni diniy illyustratsiyalar orqali aniqlashga asoslanib bormoqda. Bir tomondan global tahididlari va boshqa tomondan davlatlarning milliy manfaatlarini uyg'unlashuvini ta'minlash borasida yangi strategiyalarni izlash jarayonida ko'pchilik nazariyotchi olimlar din omili etnik, demografik, ekstremistik va boshqa turdag'i tahididlarga qarshi turuvchi ma'naviy instrument sifatida qarab kelishadi. Shuning bilan, zamonaviy dunyo jamiyatning dindorlik darajasi va sekulyarizm tendensiyalari o'rtasidagi ixtiloslar majmui sifatida ham xarakterlanadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan tanlangan demokratik taraqqiyot yo'li asnosida huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyatni rivojlanishi bilan bog'liq tarixiy sharoitda vijdon erkinligining kafolatlanishi, diniy tashkilotlar faoliyatining tez sur'atlarda o'sishiga, ularning sonining keskin ko'payishiga va buning natijasida dinning jamiyatga ta'siri kuchayishiga olib keldi. Shuningdek, mamlakatdagi tarixiy jarayonlar Yangi O'zbekistonning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat-konfessiyaviy munosabatlarning adekvat modelini shakllantirishni talab qilmoqda. Mazkur model, eng avvalo, yoshlar dunyoqarashi, tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-g'oyaviy o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. “Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim”, deya e'tirof qilinishi asosida ham mavzuning naqadar dolzarb ekanini anglash mumkin.

Ijtimoiy jarayonlarda siyosiy va diniy hayot iplari ba'zan “ajralishning to'liq imkonsizligi” darajasida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jamiyatning hozirgi holati, bu erda din yana tarixning birinchi qatoriga kirib, qadriyatlarning muhim manbai va tartibga soluvchisiga aylana bormoqda. Shu o'rinda huquqiy davlatchilik va milliy o'zlikni anglash nazariyalarining uyg'unlashuviga assoslangan holda bitta nazariy konseptni ta'kidlash mumkin: “davlat dinsiz, jamiyat esa dindor bo'lishi lozim”. Ya'ni, bugungi globallashuv va milliy qadriyatlarning emrilishi zamonida jamiyatning ma'naviy tamadduni albatta din omiligi asoslanadi, va aksincha davlat instituti barcha insonlarga huquq va erkinliklarni kafolatlagani holda turli diniy aqidalardan yiroqlashadi. Bu elementlar, avvalo, jamiyatning tayanch ustunini tashkil etuvchi yoshlar qatlaming ijtimoiy va tarixiy dunyoqarashida aks etishi lozimdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhari:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlini ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi.
- 2) Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
- 3). Abduraimova M. Demokratiya: diniy bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglash. – Toshkent: ToshDAU, 2009.
- 4) Jalilov Sh. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. –T.: O'zbekiston, 2001.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ З-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000